Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali
Aoka guvohnoma № 323759 ISSN: 3060-4818

RAQAMLI PLATFORMALARDAGI “MEROS KONTAKTI” KO‘RSATMALARINING XALQARO XUSUSIY HUQUQDAGI KVALIFIKATSIYASI VA ULARGA QO‘LLANILADIGAN HUQUQ

Raximjanova Maryam Rustamjon qizi
Toshkent davlat yuridik universiteti
magistrature bosqichi talabasi
G-mail: maryamrakhimjanova@gmail.com
+998500054504
https://doi.org/10.5281/zenodo.24413235

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Facebookning “Meros kontakti” (Legacy Contact), Googlening “Faol bo‘lmagan akkaunt menejeri” (Inactive Account Manager) hamda Applening “Raqamli meros” (Digital Legacy) xizmatlari orqali shaxs tomonidan vafotidan keyin amalga oshirilishi lozim bo‘lgan harakatlar yuzasidan berilgan ko‘rsatmalarning xalqaro xususiy huquqiy jihatlari tahlil qilinadi. Xususan, bunday ko‘rsatmalarning huquqiy tabiatini aniqlash, ularni vasiyat, platformadan foydalanish shartnomasi yoki shaxsiy ma’lumotlarga oid ko‘rsatma sifatida baholash bilan bog‘liq masalalar ko‘rib chiqiladi. Muallif O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1159, 1189, 1197 va 1198-moddalarini tahlil qilish asosida mazkur munosabatlarga nisbatan “aralash kvalifikatsiya” yondashuvini qo‘llashni taklif etadi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, ko‘rsatmaning huquqiy kuchi va amal qilishi meros statutiga, uning shakli hamda raqamli platforma tomonidan bajarilishiga oid masalalar esa tegishli mustaqil kollizion bog‘lovchilarga muvofiq aniqlanadi. Shuningdek, maqolada O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining VI bo‘limiga kiritish uchun raqamli merosga oid munosabatlarni tartibga soluvchi maxsus kollizion norma loyihasi ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: raqamli meros, meros kontakti, onlayn vosita, kvalifikatsiya, meros statuti, vasiyatnoma shakli, foydalanish shartlari, kollizion norma, xalqaro xususiy huquq.

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются правовая природа и особенности квалификации распоряжений на случай смерти, оформляемых посредством встроенных инструментов цифровых платформ, таких как Legacy Contact, Inactive Account Manager и Digital Legacy, в контексте международного частного права. Особое внимание уделяется вопросу определения применимого права в зависимости от правовой квалификации таких распоряжений - в качестве завещания, условия пользовательского соглашения либо распоряжения, касающегося персональных данных. На основе анализа статей 1159, 1189, 1197 и 1198 Гражданского кодекса Республики Узбекистан обосновывается необходимость применения подхода «смешанной квалификации», позволяющего разграничить правовое регулирование действительности распоряжения, его формы и порядка исполнения цифровой платформой. В завершение предлагается проект специальной коллизионной нормы для включения в раздел VI Гражданского кодекса Республики Узбекистан.

Ключевые слова: цифровое наследство, наследственный контакт, онлайн-инструмент, квалификация, наследственный статут, коллизионная норма.

ABSTRACT

This article examines the legal nature of post-mortem instructions made through platform-embedded digital tools, including Facebook's Legacy Contact, Google's Inactive Account Manager and Apple's Digital Legacy, from the perspective of private international law. It explores how the determination of the applicable law depends on the legal characterisation of such instructions as testamentary dispositions, contractual terms or directives concerning personal data. Drawing on Articles 1159, 1189, 1197 and 1198 of the Civil Code of the Republic of Uzbekistan, the article proposes a model of "split characterisation" to address the different legal aspects of such instructions. It also puts forward a draft special conflict-of-laws rule for incorporation into Section VI of the Civil Code of the Republic of Uzbekistan.

Keywords: digital inheritance, legacy contact, online tool, characterisation, lex successionis, conflict of laws.

KIRISH

Raqamli meros masalalariga bag'ishlangan O'zbekistondagi tadqiqotlarda hozirga qadar asosiy e'tibor raqamli aktivlarning meros tarkibiga kirishi yoki kirmasligini aniqlashga qaratilgan.[1] Biroq amaliyotda merosxo'rlar yoki notariuslar duch keladigan muammo bundan kengroqdir. Xususan, shaxs hayotlik davrida raqamli platformaning maxsus sozlamalari orqali vafotidan keyin o'z akkauntini muayyan shaxsga topshirish yoki butunlay o'chirib tashlash haqida ko'rsatma qoldirishi mumkin. Bunday ko'rsatmalar notarial tartibda rasmiylashtirilgan vasiyatnomaga zid kelishi, qonun bo'yicha merosxo'r hisoblanmaydigan shaxs foydasiga berilishi yoki xorijiy huquq bilan tartibga solinadigan platformadan foydalanish shartlari doirasida amalga oshirilishi ehtimoli mavjud.

Mazkur amaliyotning kengayishi bilan Facebook, Google, Apple kabi yirik raqamli platformalar foydalanuvchilarga vafotidan keyin o'z akkauntlari va ulardagi ma'lumotlar taqdirini belgilash imkonini beruvchi maxsus vositalarni taklif etmoqda. Masalan, Facebook 2015-yilda "Meros kontakti" (Legacy Contact) funksiyasini joriy qilgan.[2] Google va Apple ham foydalanuvchining vafotidan keyingi istaklarini oldindan belgilashga xizmat qiluvchi o'xshash mexanizmlarni ishlab chiqqan.[3] Bunda O'zbekistonda yashovchi foydalanuvchi ham mazkur imkoniyatlardan foydalanib, hech qanday notarial rasmiylashtirishsiz, platformaning ichki sozlamalari orqali o'z xohish-irodasini ifodalashi mumkin. Bu esa xalqaro xususiy huquqda muhim ahamiyatga ega bo'lgan kvalifikatsiya masalasini yangi mazmunda kun tartibiga olib chiqadi ya'ni platforma orqali berilgan bunday ko'rsatmalarni vasiyat, shartnomaviy shart yoki shaxsiy ma'lumotlarga oid ko'rsatma sifatida baholash lozimmi?[4]

Ushbu savolga beriladigan javob bevosita qo'llaniladigan huquqni

---

[1] Akramov A. Prospects for the development of legal regulation of digital inheritance in Uzbekistan // Ilm-fan va innovatsiya: ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 2025. B. 7–10; Raqamli aktivlarni meros qilib qoldirishning huquqiy muammolari: O'zbekiston va xorij amaliyoti // Yurisprudensiya. 2026. 6(3). B. 93–101. URL: https://yurisprudensiya.tsul.uz/index.php/yurisprudensiya/article/view/757 (olingan sana: 16.11.2026).

[2] Callison-Burch V., Probst J., Govea M. Adding a Legacy Contact // Meta Newsroom. 12.02.2015. URL: https://about.fb.com/news/2015/02/adding-a-legacy-contact/ (olingan sana: 16.11.2026).

[3] Google Account Help. About Inactive Account Manager. URL: https://support.google.com/accounts/answer/3036546 (olingan sana: 16.11.2026). Apple Support. How to add a Legacy Contact for your Apple Account. URL: https://support.apple.com/102631 (olingan sana: 16.11.2026). [4] Edwards L., Harbinja E. "What happens to my Facebook profile when I die?": Legal issues around transmission of digital assets on death // Digital Legacy and Interaction: Post-Mortem Issues / ed. by C. Maciel, V. Pereira. Cham: Springer, 2013. P. 115–144. DOI: 10.1007/978-3-319-01631-3_7.

belgilashga ta’sir ko‘rsatadi. Agar bunday ko‘rsatma vasiyat sifatida kvalifikatsiya qilinsa, uning shakliga nisbatan O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1198-moddasida nazarda tutilgan kollizion qoidalar qo‘llanilishi lozim bo‘ladi.[4] Bu esa platformaning elektron interfeysi orqali, notarial shaklga rioya qilmasdan berilgan ko‘rsatmaning haqiqiyligi masalasini keltirib chiqaradi. Aksincha, ko‘rsatma platformadan foydalanish shartnomasining bir qismi sifatida baholansa, shartnomaga nisbatan qo‘llaniladigan huquq, jumladan, platforma tomonidan tanlangan xorijiy huquq hal qiluvchi ahamiyat kasb etishi mumkin.[5] Agar bunday harakat shaxsiy ma’lumotlarga oid ko‘rsatma sifatida talqin qilinsa, ushbu munosabatga nisbatan qo‘llaniladigan huquqni aniqlash uchun alohida kollizion bog‘lovchi omilni belgilash zarurati yuzaga keladi.

Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi quyida keltirilgan jihatlar bilan belgilanadi. Raqamli merosga oid xorijiy va milliy tadqiqotlarda, asosan, raqamli aktivlarning meros massasidagi o‘rni, ularning huquqiy maqomi, joylashgan joyini aniqlash (lex situs) hamda meros munosabatlariga nisbatan qo‘llaniladigan huquq masalalari

o‘rganilgan.[6] Biroq raqamli platformalarning ichki funksional vositalari (Legacy Contact, Inactive Account Manager va boshqalar) orqali foydalanuvchi tomonidan vafotidan keyin bajarilishi lozim bo‘lgan ko‘rsatmalarning huquqiy tabiati hamda ularni xalqaro xususiy huquq nuqtayi nazaridan kvalifikatsiya qilish masalasi alohida tadqiqot predmeti sifatida yetarlicha o‘rganilmagan.

Mazkur ko‘rsatmalar o‘zida bir vaqtning o‘zida vasiyatga xos iroda ifodasi, raqamli platforma bilan tuzilgan shartnomaviy munosabatlar hamda shaxsiy ma’lumotlarni tasarruf etish bilan bog‘liq elementlarni mujassamlashtiradi. Shu bois ularni faqat bitta huquqiy institut doirasida baholash va yagona kollizion normaga bo‘ysundirish muayyan huquqiy muammolarni keltirib chiqaradi.

Ushbu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirish maqsadida maqolada platforma ichidagi ko‘rsatmalarga nisbatan “aralash kvalifikatsiya” yondashuvi asoslab beriladi.[7] Shuningdek, O‘zbekiston qonunchiligida bunday munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan maxsus kollizion norma loyihasi taklif etiladi.

Maqolaning maqsadi - onlayn vosita orqali berilgan o‘limdan keyingi ko‘rsatmaning huquqiy tabiatini aniqlash va unga qo‘llaniladigan huquqni belgilash mexanizmini ishlab chiqish.

Tadqiqotda qiyosiy-huquqiy, formal-yuridik, tizimli-tuzilmaviy va huquqiy modellashtirish usullaridan foydalanildi. Qiyosiy tahlil uchun AQShning Fiduciarlarning raqamli aktivlarga kirishi to‘g‘risidagi qayta ko‘rib chiqilgan yagona qonuni (RUFADAA, 2015), Fransiyaning “Informatika va erkinliklar” to‘g‘risidagi qonunining 85-moddasi, Germaniya Federal Oliy sudining 2018-yil 12-iyuldagi qarori (III ZR 183/17) va Yevropa Ittifoqining 650/2012-sonli meros reglamenti tanlandi.[8] Milliy huquq bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining VI bo‘limi normalari tahlil

---

[4] O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (ikkinchi qism), 1198-modda. 29.08.1996-y. // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. URL: https://lex.uz/docs/-180552 (olingan sana: 13.11.2026).

[5] O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (ikkinchi qism), 1189-modda. 29.08.1996-y. // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. URL: https://lex.uz/docs/-180552 (olingan sana: 13.11.2026).

[6] Viarengo I., Re J. Managing cross-border “digital succession” in the digital era: preliminary remarks on the new challenges for the current legal framework // EU and Comparative Law Issues and Challenges Series (ECLIC). 2023. Vol. 7. P. 37–52. DOI: 10.25234/eclic/28257. Merchán Murillo A. La sucesión digital internacional y el Reglamento sucesorio europeo 650/2012 // Anuario Español de Derecho Internacional Privado. 2021. T. XXI. P. 327–357. DOI: 10.19194/aedipr.21.13.

[7] Bonomi A. Successions internationales: conflits de lois et de juridictions // Recueil des Cours de l’Académie de droit international de La Haye. Vol. 350. Leiden; Boston: Martinus Nijhoff, 2011.

[8] Revised Uniform Fiduciary Access to Digital Assets Act (2015) / National Conference of Commissioners on Uniform State Laws (Uniform Law Commission). § 4. Rhode Island General Laws § 33-27.1-4. URL: https://webserver.rilegislature.gov/Statutes/TITLE33/33-27.1/33-27.1-4.htm. Loi n° 78-17 du 6 janvier 1978 relative à l’informatique, aux fichiers et aux libertés, art. 85 // Légifrance. URL: https://www.legifrance.gouv.fr; BGH, Urteil vom 12.07.2018 – III ZR 183/17 // NJW. 2018. S. 3178. Regulation (EU) No 650/2012 of the European Parliament and of the Council of 4 July 2012 on jurisdiction, applicable law, recognition and enforcement of decisions and acceptance and enforcement of authentic instruments in matters of succession and on the creation of a European Certificate of Succession // OJ L 201, 27.7.2012. P. 107–134. URL: https://eur-lex.europa.eu/eli/reg/2012/650/oj

qilindi. Huquqiy modellashtirish usuli bilan uch xil kvalifikatsiya varianti bitta namunaviy holatga qo‘llanib, natijalari solishtirildi.

Meros kontakti vositalari: tushuncha va xorijiy tartibga solish.

Onlayn vosita deganda mazkur maqolada raqamli platforma yoki xizmat provayderi tomonidan foydalanuvchiga taqdim etiladigan, uning vafot etishi yoki muayyan muddat davomida akkauntdan foydalanmasligi holatida akkaunt va unda saqlanayotgan ma’lumotlarning keyingi taqdirini oldindan belgilash imkonini beruvchi elektron xizmat tushuniladi.

Bunday vositalar orqali beriladigan ko‘rsatmalarni tavsiflovchi uchta asosiy belgi mavjud. Birinchidan, ko‘rsatma foydalanuvchining bir tomonlama xohish-irodasini ifodalaydi va uni berish uchun boshqa shaxsning oldindan roziligi talab etilmaydi. Ikkinchidan, ko‘rsatma provayder tomonidan belgilangan texnik muhit va elektron shakl doirasida rasmiylashtiriladi, ya’ni uning mazmuni hamda ifodalanish usuli platformaning funksional imkoniyatlariga bog‘liq bo‘ladi. Uchinchidan, ko‘rsatmaning amalda bajarilishi davlat organi yoki notarius tomonidan emas, balki tegishli raqamli platformani boshqaruvchi xususiy provayder tomonidan ta’minlanadi.

Raqamli vosita	Foydalanuvchi amalga oshirishi mumkin bo‘lgan harakatlar	Huquqiy ahamiyati va o‘ziga xos jihatlari
Facebook Legacy Contact	Vafotidan keyin akkauntning xotira sahifasini boshqarish uchun shaxs tayinlash yoki akkauntni butunlay o‘chirish haqida ko‘rsatma berish.	Tayinlangan shaxs xotira sahifasini boshqarishi mumkin, biroq foydalanuvchining shaxsiy yozishmalariga kira olmaydi.[9]
Google Inactive Account Manager	Akkaunt belgilangan muddat davomida faol bo‘lmagan taqdirda, tanlangan ma’lumotlarni ishonchli shaxslarga yuborish yoki akkauntni o‘chirishni belgilash.	Mexanizm bevosita vafot etish faktiga emas, balki oldindan belgilangan faolsizlik muddatining tugashiga asoslanadi.[10]
Apple Digital Legacy	Ishonchli shaxsni meros kontakti sifatida tayinlash va unga Apple akkauntidagi ayrim ma’lumotlarga kirish imkonini	Kirish kaliti mavjud bo‘lmagan taqdirda, Apple odatda vafot etganlik guvohnomasi asosida ham
	beruvchi maxsus kirish kalitini taqdim etish.	meros kontaktiga akkaunt ma’lumotlariga kirish huquqini bermaydi.[11]

[9] Callison-Burch V., Probst J., Govea M. Adding a Legacy Contact // Meta Newsroom. 12.02.2015. URL: https://about.fb.com/news/2015/02/adding-a-legacy-contact/

[10] Google Account Help. About Inactive Account Manager. URL: https://support.google.com/accounts/answer/3036546

[11] Apple Support. How to add a Legacy Contact for your Apple Account. URL: https://support.apple.com/102631 Apple Support. How to request access to a deceased family member’s Apple Account. URL: https://support.apple.com/HT208510

Google Inactive Account Manager vositasining o‘ziga xos jihati shundaki, unda ko‘rsatmaning bajarilishini ishga tushiruvchi asosiy shart foydalanuvchining vafoti emas, balki akkauntning oldindan belgilangan muddat davomida faol bo‘lmasligidir. Shu sababli, bunday ko‘rsatmani har doim ham o‘lim munosabati bilan amalga oshiriladigan tasarruf sifatida baholash mumkin emas. Bu esa uni vasiyat sifatida kvalifikatsiya qilish masalasiga shubha tug‘diradi hamda ko‘rsatmaning huquqiy tabiatini aniqlashda alohida yondashuvni talab etadi.

AQSh modeli.

AQShda amal qiladigan RUFADAA qonunining 4-bo‘limida raqamli aktivlarni boshqarish bo‘yicha ko‘rsatmalarning ustuvorlik tartibi belgilangan.[12] Unga ko‘ra, birinchi navbatda foydalanuvchining xizmat ko‘rsatuvchi provayder taqdim etgan onlayn vosita orqali bildirgan xohish-irodasi inobatga olinadi. Agar bunday ko‘rsatma mavjud bo‘lmasa, vasiyatnoma, trast yoki ishonchnomada belgilangan qoidalar qo‘llaniladi. Ular ham mavjud bo‘lmagan taqdirdagina xizmatdan foydalanish shartlariga murojaat qilinadi.

Bunda muhim bir jihat bor ya’ni onlayn vosita foydalanuvchiga o‘z ko‘rsatmasini istalgan vaqtda o‘zgartirish yoki bekor qilish imkonini berishi kerak. Ana shu talab bajarilgan bo‘lsa, onlayn vosita orqali berilgan ko‘rsatma hatto vasiyatnomadagi unga zid qoidalardan ham ustun hisoblanadi.[13] Demak, AQSh qonunchiligida shaxsning raqamli aktivlari yuzasidan bevosita onlayn tarzda bildirgan xohish-irodasiga alohida huquqiy ahamiyat berilgan ekanligini ko‘rsatadi. **Fransiya modeli.**

Fransiyada 2016-yilda qabul qilingan “Raqamli respublika uchun” qonuni[14] bilan fuqarolarga vafotidan keyin shaxsiy ma’lumotlari qanday saqlanishi, o‘chirilishi yoki boshqa shaxslarga berilishini oldindan belgilash huquqi berilgan. “Informatika va erkinliklar” to‘g‘risidagi qonunning 85-moddasiga ko‘ra, bunday

ko‘rsatmalar umumiy yoki alohida tartibda berilishi mumkin. Alohida ko‘rsatmalar shaxsiy ma’lumotlarni qayta ishlovchi tashkilotda ro‘yxatga olinadi.[15] Demak bundan ko‘rishimiz mumkinki, Fransiyada ushbu masala meros huquqidan ko‘ra ko‘proq shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish bilan bog‘liq huquqiy munosabat sifatida tartibga solingan.

Germaniya modeli.

Germaniya Federal Oliy sudi 2018-yil 12-iyuldagi qarorida vafot etgan qizining Facebook akkauntiga kirish huquqini talab qilgan

[12] Revised Uniform Fiduciary Access to Digital Assets Act (2015) / National Conference of Commissioners on Uniform State Laws (Uniform Law Commission). § 4. Rhode Island General Laws § 33-27.1-4. URL: https://webserver.rilegislature.gov/Statutes/TITLE33/33-27.1/33-27.1-4.htm

[13] RUFADAA § 4(a): agar onlayn vosita foydalanuvchiga ko‘rsatmani istalgan vaqtda o‘zgartirish yoki o‘chirish imkonini bersa, onlayn vosita orqali berilgan ko‘rsatma vasiyatnoma, trast, ishonchnoma yoki boshqa hujjatdagi zid ko‘rsatmadan ustun turadi. Revised Uniform Fiduciary Access to Digital Assets Act (2015) / National Conference of Commissioners on Uniform State Laws (Uniform Law Commission). § 4. Rhode Island General Laws § 33-27.1-4. URL: https://webserver.rilegislature.gov/Statutes/TITLE33/33-27.1/33-27.1-4.htm.

[14] Loi n° 2016-1321 du 7 octobre 2016 pour une République numérique, art. 63 // Journal officiel de la République française. 08.10.2016. № 0235.

[15] Loi n° 78-17 du 6 janvier 1978 relative à l’informatique, aux fichiers et aux libertés, art. 85 // Légifrance. URL: https://www.legifrance.gouv.fr CNIL. Mort numérique: quels sont vos droits? Quels sont les droits des héritiers? URL: https://www.cnil.fr/fr/mort-numerique-ou-eternite-virtuelle-que-deviennent-vos-donnees-apres-la-mort-0 (olingan sana: 16.11.2026).

ota-onaning da'vosini qanoatlantirgan.[16] Sud Germaniya Fuqarolik kodeksining (BGB) 1922-paragrafga asosan[17], ijtimoiy tarmoqdan foydalanish shartnomasi bo'yicha huquq va majburiyatlar ham merosxo'rlarga o'tishini e'tirof etgan. Ushbu yondashuvga ko'ra, akkauntga oid shartnomaviy huquqlar va undagi ma'lumotlar meros huquqi doirasida ko'rib chiqiladi, onlayn vositalarga esa alohida huquqiy maqom berilmaydi.

Demak, AQSh, Fransiya va Germaniyada ushbu masala turlicha huquqiy tartibga solingan. Bu farqlar chet el elementi bilan bog'liq munosabatlarda qaysi davlat qonunchiligini qo'llash va huquqiy munosabatni qanday kvalifikatsiya qilish masalasini yuzaga keltiradi.

Kvalifikatsiya muammosi: uch xil yondashuv.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1159-moddasiga ko'ra, yuridik tushunchalarni kvalifikatsiya qilishda, qoida tariqasida, O'zbekiston qonunchiligiga asoslaniladi. Agar muayyan tushuncha milliy qonunchilikda mavjud bo'lmasa yoki boshqa mazmunda qo'llanilsa, xorijiy davlat huquqiga murojaat qilish mumkin.[18] "Onlayn vosita" tushunchasi O'zbekiston qonunchiligida alohida huquqiy institut sifatida belgilanmagan. Shu sababli mazkur masalani hal etishda FKning 1159-moddasi ikkinchi qismi asosida xorijiy huquq normalarini ham hisobga olish zarurati yuzaga kelishi mumkin.

Masalan, Toshkent shahrida doimiy yashagan O'zbekiston fuqarosi vafot etgan. Uning yagona qonuniy merosxo'ri Germaniyada istiqomat qiluvchi o'g'li bo'lib, marhum vasiyatnoma qoldirmagan. Biroq u hayotligida Google akkaunti

orqali Qozog'istonda yashovchi do'stini o'z ma'lumotlarini olishga vakolatli shaxs sifatida belgilagan. Akkauntda oilaviy fotosuratlar, shaxsiy yozishmalar va pullik obunalar mavjud. Shu bilan birga, Google xizmatidan foydalanish shartlarida AQShning Kaliforniya shtati qonunchiligi qo'llanilishi ko'rsatilgan.[19]

Huquqiy yondashuv	Qo'llaniladigan huquq	Namunaviy holatdagi natija	Asosiy muammo
Vasiyatnoma sifatida baholash	FKning 1197-moddasiga ko'ra, marhumning oxirgi doimiy yashash joyi huquqi, ya'ni O'zbekiston qonunchiligi qo'llaniladi. Vasiyatnomaning shakli esa 1198-modda asosida baholanadi.	Google orqali berilgan ko'rsatma vasiyatnoma uchun belgilangan shakl talablariga javob bermasa, haqiqiy deb topilmasligi mumkin. Bunday holatda meros huquqlari o'g'li B.ga o'tadi.	Marhumning hayotligida aniq bildirgan xohishirodasi inobatga olinmay qolishi mumkin.

[16] BGH, Urteil vom 12.07.2018 – III ZR 183/17 // NJW. 2018. S. 3178. Quyi instansiyalar: LG Berlin, Urteil vom 17.12.2015 – 20 O 172/15; KG, Urteil vom 31.05.2017 – 21 U 9/16. Qarorning ijrosi bo'yicha: BGH, Beschluss vom 27.08.2020 – III ZB 30/20.

[17] Bürgerliches Gesetzbuch (BGB), § 1922 (Gesamtrechtsnachfolge). URL: https://www.gesetze-iminternet.de/bgb/__1922.html (olingan sana: 15.11.2026).

[18] O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (ikkinchi qism), 1159-modda. 29.08.1996-y. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. URL: https://lex.uz/docs/-180552

[19] Google Terms of Service. Settling disputes, governing law, and courts. URL: https://policies.google.com/terms.

Shartnoma sharti sifatida baholash	FKning 1189-moddasiga muvofiq, taraflar tanlagan huquq, ya'ni Kaliforniya shtati qonunchiligi qo'llanilishi mumkin.	Google tomonidan belgilangan tartib asosida C. akkauntdagi ma'lumotlardan foydalanish huquqini olishi mumkin. B.ning merosxo'r sifatidagi huquqlari bilan ziddiyat yuzaga keladi.	Provayder belgilagan shartlar merosxo'rning qonuniy manfaatlariga ta'sir qilishi mumkin.
Shaxsiy ma'lumotlarga oid ko'rsatma sifatida baholash	Maxsus qoida mavjud emas. FKning 1179-moddasi yoki 1158-moddasidagi eng yaqin aloqa tamoyiliga murojaat qilish mumkin.[20]	Qaysi davlat qonunchiligi qo'llanilishi va akkauntdagi ma'lumotlar kimga berilishi aniq emas.	Huquqiy noaniqlik yuzaga keladi. Bundan tashqari, pullik obunalar kabi mulkiy huquqlar masalasi ham ochiq qoladi.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, onlayn ko'rsatmani faqat vasiyatnoma sifatida baholash foydalanuvchining xohish-irodasi inobatga olinmasligiga olib kelishi mumkin. Uni shartnoma sharti sifatida baholash esa merosxo'rning huquqlarini provayder belgilagan qoidalarga bog'lab qo'yadi. Har ikkala yondashuvda ham foydalanuvchi, merosxo'r va provayder manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni saqlash qiyinlashadi.

Bizning fikrimizcha, onlayn vosita orqali berilgan ko'rsatmani faqat vasiyatnoma yoki shartnoma sharti sifatida baholash to'g'ri emas. Chunki bunday ko'rsatma foydalanuvchi vafotidan keyin uning raqamli aktivlari taqdirini belgilashga qaratilgan bo'lib, mazmunan meros huquqi bilan bog'liq. Biroq ko'rsatma provayderning onlayn tizimi orqali beriladi va uning bajarilishi shartnomaviy munosabatlarga ham bog'liq.

Shu sababli mazkur masalani hal etishda quyidagi uch jihatni alohida tartibga solish maqsadga muvofiqdir:

1. Ko'rsatmaning qonuniyligi va merosxo'rlar huquqlariga ta'siri meros qonunchiligi asosida baholanishi;
2. Ko'rsatmani rasmiylashtirish tartibi uchun onlayn muhitga moslashtirilgan soddalashtirilgan talablar belgilanishi;
3. Provayderning ko'rsatmani bajarish tartibi, jumladan, shaxsni aniqlash, muddatlar va texnik masalalar shartnoma shartlari asosida tartibga solinishi lozim.

Bunday yondashuv FKning 1159-moddasida nazarda tutilgan huquqiy munosabatning maqsadi va xususiyatini hisobga olish tamoyiliga mos keladi.

[20] O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (ikkinchi qism), 1158 va 1179-moddalar. 29.08.1996-y. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. URL: https://lex.uz/docs/-180552

Shuningdek, u Yevropa Ittifoqining 650/2012-sonli reglamentidagi yondashuvga ham yaqin. Mazkur reglament merosga oid munosabatlarni keng qamrab oladi, biroq hadya yoki sug‘urta shartnomasi kabi merosdan tashqari

asoslarda o‘tadigan huquqlarni alohida tartibga solishni nazarda tutadi.[21] **Qo‘llaniladigan huquq va kollizion yechim.**

Ko‘rsatmaning mazmuni: meros huquqining qo‘llanilishi.

Fuqarolik kodeksining 1197-moddasiga ko‘ra, meros munosabatlari, qoida tariqasida, meros qoldiruvchining oxirgi doimiy yashash joyi qonunchiligi asosida tartibga solinadi. Meros qoldiruvchi vasiyatnomasida o‘zi fuqarosi bo‘lgan davlat huquqini tanlashi ham mumkin.[22] Bizning fikrimizcha, onlayn vosita orqali berilgan ko‘rsatmalarga ham ushbu qoida tatbiq etilishi lozim. Bunda ko‘rsatmada merosxo‘r bo‘lmagan shaxsni tayinlash mumkinligi, majburiy ulushga ega merosxo‘rlarning huquqlari va keyinchalik tuzilgan vasiyatnomaning ko‘rsatmaga ta’siri meros qonunchiligi asosida hal qilinishi kerak.[23]

Yuqoridagi misolda O‘zbekiston qonunchiligi qo‘llaniladi. Qozog‘istonda yashovchi C.ning vakolati akkauntga kirish va undagi ma’lumotlarni olish bilan cheklanishi maqsadga muvofiq. U merosxo‘r emas, balki marhumning raqamli ma’lumotlariga oid ko‘rsatmalarini bajaruvchi shaxs sifatida qaraladi. Akkaunt bilan bog‘liq meros qilib qoldirilishi mumkin bo‘lgan mulkiy huquqlar esa qonuniy merosxo‘r B.ga o‘tadi.

Ko‘rsatmaning shakli: haqiqiyligini saqlab qolish tamoyili (favor validitatis).

Fuqarolik kodeksining 1198-moddasida vasiyatnomaning shakliga nisbatan qo‘llaniladigan huquq belgilangan. Unga ko‘ra, vasiyatnoma tuzilgan paytdagi doimiy yashash joyi qonunchiligi asosiy mezon hisoblanadi. Shu bilan birga, vasiyatnoma tuzilgan joy yoki O‘zbekiston qonunchiligi talablariga javob bersa, uni faqat shakliga oid kamchiliklar sababli haqiqiy emas deb topishga yo‘l qo‘yilmaydi.[24]

Bizning fikrimizcha, ushbu qoidani raqamli aktivlarning xususiyatidan kelib chiqib to‘ldirish zarur. Xususan, foydalanuvchi provayderning onlayn vositasi orqali belgilangan elektron tartibda bergan ko‘rsatmasi raqamli aktivlarga nisbatan shakl jihatidan haqiqiy deb tan olinishi lozim.

Bunday tartib an’anaviy vasiyatnomaga qo‘yilgan talablarni o‘zgartirmaydi. Chunki onlayn ko‘rsatma faqat raqamli aktivlarga taalluqli bo‘lib, ko‘chmas mulk, bank omonatlari va boshqa an’anaviy mol-mulkka nisbatan qo‘llanilmaydi.

Ko‘rsatmani bajarish: shartnoma huquqining qo‘llanilishi.

Fuqarolik kodeksining 1189-moddasiga ko‘ra, shartnoma munosabatlari taraflar tanlagan davlat huquqi asosida tartibga solinadi.[25] Shu sababli provayder tomonidan shaxsni aniqlash, murojaatni ko‘rib chiqish muddati va ma’lumotlarni taqdim etish tartibi kabi masalalar shartnoma shartlari asosida hal qilinishi mumkin. Biroq bu qoidalar merosxo‘rlarning qonuniy huquqlarini cheklamasligi kerak.

Bizning fikrimizcha, shartnoma qoidalari ko‘rsatmani bajarish tartibini belgilashi,

raqamli aktivlarga bo‘lgan huquq kimga o‘tishini esa meros qonunchiligi hal qilishi lozim.

Ko‘rsatmalarning ustuvorlik tartibi.

---

[21] Regulation (EU) No 650/2012 of the European Parliament and of the Council of 4 July 2012 on jurisdiction, applicable law, recognition and enforcement of decisions and acceptance and enforcement of authentic instruments in matters of succession and on the creation of a European Certificate of Succession // OJ L 201, 27.7.2012. P. 107–134.
Art. 1(2)(g); preambulaning 14-bandi. URL: https://eur-lex.europa.eu/eli/reg/2012/650/oj

[22] O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (ikkinchi qism), 1197-modda. 29.08.1996-y. // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. URL: https://lex.uz/docs/-180552

[23] O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (ikkinchi qism), 1142-modda. 29.08.1996-y. // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. URL: https://lex.uz/docs/-180552

[24] O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (ikkinchi qism), 1198-modda. 29.08.1996-y. // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. URL: https://lex.uz/docs/-180552

[25] O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (ikkinchi qism), 1189

Raqamli aktivlar yuzasidan bir-biriga zid ko‘rsatmalar mavjud bo‘lsa, ularning qaysi biri ustunligini aniqlash zarur. Bizning fikrimizcha, O‘zbekiston qonunchiligida quyidagi tartibni belgilash maqsadga muvofiq bo‘lar edi:

1. Raqamli aktiv aniq ko‘rsatilgan, keyinroq tuzilgan vasiyatnoma;
2. Foydalanuvchi istalgan vaqtda o‘zgartirishi yoki bekor qilishi mumkin bo‘lgan onlayn ko‘rsatma;
3. Raqamli aktivlar alohida ko‘rsatilmagan umumiy vasiyatnoma;
4. Qonun bo‘yicha merosxo‘rlik. Bunda provayder shartlari faqat ko‘rsatmani bajarish tartibiga nisbatan qo‘llaniladi.

Taklif etilayotgan tartib AQShning RUFADAA modelidan farq qiladi. AQShda belgilangan talablarga javob beruvchi onlayn ko‘rsatma unga zid vasiyatnomadan ustun hisoblanadi.[26] Bizning fikrimizcha, O‘zbekistonda esa keyinroq tuzilgan va raqamli aktivlar aniq ko‘rsatilgan notarial vasiyatnomaga ustuvorlik berish maqsadga muvofiq. Chunki notarial tartibda rasmiylashtirilgan vasiyatnoma shaxsning xohish-irodasini tasdiqlash va uning huquqlarini himoya qilishda muhim huquqiy kafolat hisoblanadi.

Ommaviy tartib va imperativ normalar.

Raqamli meros masalasini tartibga solishda merosxo‘rlarning huquqlari bilan birga boshqa shaxslarning qonuniy manfaatlarini ham himoya qilish zarur. Shu sababli taklif etilayotgan aralash yondashuvda imperativ normalar va ommaviy tartib qoidalari ham hisobga olinishi kerak.

Imperativ normalar.

Fuqarolik kodeksining 1165-moddasiga ko‘ra, chet el huquqi qo‘llanilishi O‘zbekiston qonunchiligining bevosita qo‘llanilishi lozim bo‘lgan imperativ normalariga ta’sir qilmaydi. Sud ish bilan yaqin bog‘liq bo‘lgan boshqa davlatning imperativ normalarini ham hisobga olishi mumkin.[28]

Bu qoida raqamli meros masalasida ikki jihatdan muhim. Birinchidan, O‘zbekiston meros huquqi qo‘llaniladigan hollarda majburiy ulushga ega merosxo‘rlarning huquqlari onlayn ko‘rsatma orqali cheklanishiga yo‘l qo‘yilmasligi kerak. Ikkinchidan, marhumning elektron yozishmalarida boshqa shaxslarga tegishli ma’lumotlar ham bo‘lishi mumkin. Shu sababli yozishmalar siri va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilishga oid talablar ham inobatga olinishi lozim.[27] Fransiya qonunchiligida ham marhum qoldirgan ko‘rsatmalar uchinchi shaxslarning huquqlariga zarar yetkazmasligi nazarda tutilgan.[28]

Ommaviy tartib. Fuqarolik kodeksining 1164-moddasiga ko‘ra, chet el huquqini qo‘llash O‘zbekiston huquq-tartibotining asoslariga zid keladigan hollarda uning qo‘llanilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.[29]

Masalan, provayder shartlariga ko‘ra, foydalanuvchi vafotidan keyin uning akkaunti avtomatik o‘chirilib, merosxo‘rlar mualliflik asarlari yoki daromad keltiruvchi raqamli kontentdan mahrum bo‘lishi mumkin. Bunday holat meros huquqining konstitutsiyaviy kafolatlari nuqtayi nazaridan

[26] Revised Uniform Fiduciary Access to Digital Assets Act (2015) / National Conference of Commissioners on Uniform State Laws (Uniform Law Commission). § 4. Rhode Island General Laws § 33-27.1-4. URL: https://webserver.rilegislature.gov/Statutes/TITLE33/33-27.1/33-27.1-4.htm. [28] O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (ikkinchi qism), 1165

[27] O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 30.04.2023-y., 31-modda. // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. URL: https://lex.uz/docs/-6445145. O‘zbekiston Respublikasining “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonuni. 02.07.2019-y., O‘RQ-547-son. URL: https://lex.uz/docs/-4396419

[28] Loi n° 78-17 du 6 janvier 1978 relative à l’informatique, aux fichiers et aux libertés, art. 85 // Légifrance. URL: https://www.legifrance.gouv.fr Rapport du 117e Congrès des notaires de France (2021). Le sort des données des défunts. URL: https://www.rapport-congresdesnotaires.fr/2021-rapport-du-117e-congres/le-sort-des-donnees-desdefunts

[29] O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (ikkinchi qism), 1164-modda. 29.08.1996-y. // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. URL: https://lex.uz/docs/-180552

baholanishi lozim.[30] Biroq ommaviy tartib qoidasini har qanday huquqiy farqqa nisbatan qo‘llash to‘g‘ri emas. U faqat O‘zbekiston huquq-tartibotining asoslariga jiddiy zid keladigan holatlarda qo‘llanilishi kerak.

Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish. Raqamli xizmatlardan foydalanuvchi shaxs provayder bilan munosabatlarda iste’molchi sifatida ham ishtirok etadi. Fuqarolik kodeksining 1195-moddasida iste’molchiga yetkazilgan zarar bilan bog‘liq talablar bo‘yicha qo‘llaniladigan huquqni tanlash imkoniyati nazarda tutilgan.[31]

Bizning fikrimizcha, ushbu yondashuvdan kelib chiqib, raqamli xizmat ko‘rsatish shartnomasida chet el huquqi tanlangan bo‘lsa ham, bu merosxo‘rlarni foydalanuvchining oxirgi doimiy yashash joyi qonunchiligida belgilangan majburiy huquqiy kafolatlardan mahrum qilmasligi kerak. Bunday qoida merosxo‘rlar manfaatlarini himoya qilishga va provayder bilan foydalanuvchi o‘rtasidagi huquqiy muvozanatni saqlashga xizmat qiladi.

NATIJALAR

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, raqamli aktivlar bo‘yicha onlayn ko‘rsatmalarni huquqiy tartibga solish uchun O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining VI bo‘limiga 1198-moddadan keyin yangi modda kiritishni taklif qilamiz

1198[1]-modda. Raqamli aktivlar bo‘yicha onlayn vosita orqali berilgan ko‘rsatmalar

1. Foydalanuvchi raqamli xizmat ko‘rsatuvchi provayderning elektron vositasi orqali vafotidan keyin yoki uzoq vaqt faol bo‘lmagan taqdirda o‘z raqamli aktivlari yuzasidan ko‘rsatma berishi mumkin. Bunday ko‘rsatmaning qonuniyligi, amal qilish doirasi va vasiyatnoma bilan o‘zaro nisbati ushbu Kodeksning 1197-moddasiga muvofiq meros munosabatlariga qo‘llaniladigan huquq asosida belgilanadi.

2. Ko‘rsatma provayder belgilagan elektron shaklda berilgan va foydalanuvchi uni istalgan vaqtda o‘zgartirish yoki bekor qilish imkoniyatiga ega bo‘lgan taqdirda, tegishli raqamli aktivlarga nisbatan shakl jihatidan haqiqiy hisoblanadi.

3. Ko‘rsatmani bajarish tartibi provayder bilan tuzilgan shartnomaga qo‘llaniladigan huquq asosida belgilanadi. Biroq shartnoma shartlari merosxo‘rlarning yoki ko‘rsatmada belgilangan shaxsning meros qonunchiligidan kelib chiqadigan huquqlarini cheklashi mumkin emas.

4. Agar foydalanuvchi keyinchalik tuzgan vasiyatnomasida raqamli aktivlarini aniq ko‘rsatgan bo‘lsa, ushbu vasiyatnoma oldingi onlayn ko‘rsatmadan ustun hisoblanadi. Bunda shaxsiy ma’lumotlar va aloqa sirini himoya qilishga oid O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablari saqlanib qoladi.

Qo‘shimcha takliflar

Mazkur qoidani amaliyotga joriy etish uchun ayrim huquqiy hujjatlarga ham tegishli o‘zgartirishlar kiritish zarur deb hisoblaymiz.

Birinchidan, notarial harakatlarni amalga oshirish tartibida meros ishini yuritayotgan notarius merosxo‘rlardan marhumning Google, Facebook va boshqa raqamli platformalarda qoldirgan ko‘rsatmalari mavjudligini aniqlashi nazarda tutilishi kerak.

Ikkinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining meros huquqiga oid qarorida[32] raqamli aktivlarning meros bo‘lib o‘tishi, onlayn ko‘rsatmalarning huquqiy kuchi va merosxo‘rlar huquqlariga ta’siri yuzasidan tushuntirishlar berilishi maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, notarial vasiyatnoma namunalariga raqamli aktivlarga oid alohida band kiritish taklif etiladi. Bu orqali fuqaro o‘zining elektron pochta manzillari, ijtimoiy tarmoq akkauntlari va boshqa raqamli aktivlari bo‘yicha ilgari bergan ko‘rsatmalarini tasdiqlashi, o‘zgartirishi yoki bekor qilishi mumkin bo‘ladi.

---

[30] O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 30.04.2023-y., 41-modda. // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. URL: https://lex.uz/docs/-6445145

[31] O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (ikkinchi qism), 1195

[32] O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining “Sudlar tomonidan meros huquqiga oid qonunchilikning qo‘llanilishi to‘g‘risida”gi 2011-yil 20-iyuldagi 05-sonli qarori. URL: https://lex.uz/acts/-2414320

XULOSA

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, raqamli platformalar orqali berilgan ko‘rsatmalarning huquqiy maqomini aniqlash xalqaro xususiy huquqning dolzarb masalalaridan biridir. Bunday ko‘rsatmalarni faqat vasiyatnoma yoki shartnoma sharti sifatida baholash yetarli emas. Chunki birinchi holatda foydalanuvchining hayotligida bildirgan xohish-irodasi e’tibordan chetda qolishi, ikkinchi holatda esa merosxo‘rlarning huquqlari provayder belgilagan shartlarga bog‘liq bo‘lib qolishi mumkin.

Bizning fikrimizcha, ushbu masalani hal etishda aralash huquqiy yondashuvdan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunda ko‘rsatmaning mazmuni va merosxo‘rlar huquqlariga ta’siri Fuqarolik kodeksining 1197-moddasi, uni rasmiylashtirish shakli elektron ko‘rsatmalar uchun belgilangan alohida talablar, provayder tomonidan bajarilish tartibi esa 1189-modda asosida tartibga solinishi lozim. Bu foydalanuvchining xohish-irodasini hurmat qilish bilan birga, merosxo‘rlarning qonuniy manfaatlarini ham himoya qilish imkonini beradi.

Shu nuqtayi nazardan, Fuqarolik kodeksining VI bo‘limini 1198[1]-modda bilan to‘ldirishni taklif etamiz. Mazkur o‘zgartirish raqamli aktivlarga oid nizolarni hal etishda sudlar va notariuslar uchun aniq huquqiy asos yaratishga xizmat qiladi. Kelgusida esa kriptoaktivlar, elektron hamyonlar va smart-kontraktlar orqali beriladigan ko‘rsatmalarning meros huquqidagi o‘rnini alohida tadqiq etish zarur deb hisoblaymiz.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. VI bo‘lim,
2. 1158–1199-moddalar. Matn
3. Akramov A. Prospects for the development of legal regulation of digital inheritance in Uzbekistan // Ilm-Fan. 2025. 3(30). B. 7–10.
4. Raqamli aktivlarni meros qilib qoldirishning huquqiy muammolari: O‘zbekiston va xorij amaliyoti // Yurisprudensiya. 2026. 6(3). B. 93–101.
5. Rustambekov I. O‘zbekiston Respublikasida xalqaro xususiy huquqni isloh qilish // Yuridik fanlar axborotnomasi. 2022. № 1.
6. Revised Uniform Fiduciary Access to Digital Assets Act (2015), § 4; masalan, Rhode Island General Laws § 33-27.1-4.
7. Loi n° 78-17 du 6 janvier 1978 relative à l’informatique, aux fichiers et aux libertés, art. 85; CNIL: Mort numérique.
8. BGH, Urteil vom 12.07.2018 – III ZR 183/17, NJW 2018, 3178. Sharh 8. Regulation (EU) No 650/2012 of 4 July 2012 on succession. Matn
9. Viarengo I., Re J. Managing cross-border «digital succession» in the digital era // EU and Comparative Law Issues and Challenges Series. Vol. 7.
10. Merchán Murillo A. La sucesión digital internacional y el Reglamento sucesorio europeo 650/2012 // AEDIPr. 2021. T. XXI. P. 327–357.
11. Edwards L., Harbinja E. What happens to my Facebook profile when I die? Legal issues around transmission of digital assets on death // CREATe Working Paper. 2013. No. 5.
12. Bonomi A. Successions internationales: conflits de lois et de juridictions // Recueil des Cours. 2011. Vol. 350.